

## 2018 yilning yanvar-fevral oylarida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **2149,0 mlrd.so'mni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **337,1 mlrd.so'mni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **15,7 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **17,0 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 2149,0 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 10,5 % ga, tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishslashning - 12,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 36,8 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 280,8 % ga o'sishi hisoblanadi.


### **2018 yilning yanvar - fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi**



### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 337,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 99,4 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 15,7 % ni tashkil etdi.


#### 2018 yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




2018 yil yanvar-fevral oyida iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish 58,8 foizni va nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish 41,2 foizni tashkil etdi.

**Yanvar-fevral oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi,  
% da**

**2017 yil**



**2018 yil**




█ Oziq-ovqat tovarlari  
█ Nooziq-ovqat tovarlari

**Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Muborak (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 29,6 % ulushini), G'uzor (21,9 %), Qarshi shahri (11,1 %), Nishon (10,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**2018 yilning yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlarning  
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**



Shu bilan birga eng kam ulush Kitob (1,4 %), Yakkabog' (1,6 %), Chiroqchi (1,7 %), Shahrisabz (1,9 %) va Mirishkor (2,0 %) tumanlariga to'g'ri keladi.


Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Qarshi (2017 yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 193,5 % ga), Nishon (130,2 % ga), Shahrisabz shahri (128,4 % ga), Kasbi (125,5 % ga), va Dehqonobod (120,7 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

***2018 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari***  
*(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)*



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqlanishi tahlili Muborak tumanida (7719,8 ming so'm), G'uzor tumanida (2419,7 ming so'm), Nishon tumanida (1616,9 ming so'm) va Qarshi shahrida (897,8 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (689,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

***2018 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda***




### **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 17,0 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Shahridsabz tumanida (68,3 %), Yakkabog' tumanida (63,4 %) va Qarshi shahrida (56,1 %) viloyatlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (1,3 %), G'uzor tumanida (2,0 %), Nishon tumanida (3,8 %) va Dehqonobod tumanida (10,5 %) kuzatildi.

#### **2018 yilning yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da**



## *Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.*

Bugungi kunda viloyatda 2 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 465 tasi Qarshi shahrida, 317 tasi Kitob tumanida, 227 tasi Shahrисabz shahrida, 195 tasi Yakkabog' tumanida, 153 tasi Qarshi tumanida, 133 tasi Chiroqchi tumanida, 120 tasi Qamashi tumanida, 114 tasi Shahrисabz tumanida, 110 tasi Koson tumanida, 80 tasi Guzor tumanida, 58 tasi Kasbi tumani, 49 tasi Muborak tumani, 48 tasi Nishon tumanida, 42 tasi Dehqonobod tumanida va 41 tasi Mirishkor tumanlarida joylashgan.

### *2018 yil 1 fevral holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni*

